


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEXNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich	
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	



DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI

Gadoyeva Nilufar Erkinovna

Toshkent xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: nilufargadoeva@icloud.com

Annotatsiya. Davlat budjeti barqarorligining iqtisodiy mazmuni, unga ta'sir etuvchi omillar hamda soliq bazasining ushbu jarayondagi o'rni tadqiq etilgan. Davlat budjeti barqarorligi daromadlarning yetariligi va barqarorligi, xarajatlarning moliyaviy ta'minlanganligi, fiskal muvozanat, davlat qarzining boshqariladigan darajasi hamda iqtisodiy shoklarga moslashuvchanlikning o'zaro uyg'unligi sifatida asoslangan. Budget barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar fiskal, makroiqtisodiy, tarkibiy-iqtisodiy, institutsional va tashqi guruhlariga ajratilgan. Shuningdek, soliq bazasini kengaytirishning qamrovni oshirish, diversifikatsiyani ta'minlash va daromadlar o'zgaruvchanligini kamaytirish kanallari orqali budget barqarorligiga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, budget barqarorligi, fiskal barqarorlik, soliq bazasi, soliq tushumlari, daromadlar diversifikatsiyasi, budget taqchilligi, davlat qarzi, fiskal risk, iqtisodiy shok.

Аннотация. Исследованы экономическое содержание устойчивости государственного бюджета, факторы, влияющие на неё, а также роль налоговой базы в данном процессе. Устойчивость государственного бюджета обоснована как сочетание достаточности и стабильности доходов, финансовой обеспеченности расходов, фискального равновесия, управляемого уровня государственного долга и адаптивности к экономическим шокам. Факторы, влияющие на устойчивость бюджета, классифицированы на фискальные, макроэкономические, структурно-экономические, институциональные и внешние группы. Также раскрыто влияние расширения налоговой базы на устойчивость бюджета посредством расширения охвата, обеспечения диверсификации и снижения волатильности доходов.

Ключевые слова: государственный бюджет, устойчивость бюджета, фискальная устойчивость, налоговая база, налоговые поступления, диверсификация доходов, дефицит бюджета, государственный долг, фискальный риск, экономический шок.

Abstract. The economic essence of state budget stability, the factors affecting it, and the role of the tax base in this process are examined. State budget stability is substantiated as a combination of revenue adequacy and stability, financial security of expenditures, fiscal balance, a manageable level of public debt, and adaptability to economic shocks. The factors affecting budget stability are classified into fiscal, macroeconomic, structural-economic, institutional, and external groups. Furthermore, the impact of broadening the tax base on budget stability through expanded coverage, enhanced diversification, and reduced revenue volatility is examined.

Keywords: state budget, budget stability, fiscal stability, tax base, tax revenues, revenue diversification, budget deficit, public debt, fiscal risk, economic shock.

KIRISH

Davlat budjeti barqarorligi mamlakat moliya tizimining holatini tavsiflovchi muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, uning mazmuni davlatning joriy moliyaviy majburiyatlarini bajarishi bilan bir qatorda, kelgusi davrlarda ham budget tizimining funksional imkoniyatlarini saqlab qolishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan, budget barqarorligini faqat muayyan moliya yilida daromadlar va xarajatlarning tengligi yoki budget taqchilligining mavjud emasligi orqali baholash mazkur kategoriyaning iqtisodiy mazmunini to'liq qamrab olmaydi. Budget tizimi qisqa muddatda muvozanatlangan bo'lishi mumkin, shu bilan birga, uning daromadlari barqaror manbalarga asoslanishi va xarajat majburiyatlarining uzoq muddatda moliyaviy jihatdan ta'minlanganligi budget barqarorligini kompleks baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda mazkur masala kengroq fiskal barqarorlik (*fiscal sustainability*) kategoriyasi doirasida tadqiq etiladi. OECD "fiskal barqarorlikni davlatning davlat moliyasini uzoq muddat davomida ishonchli va xizmat ko'rsatish mumkin bo'lgan holatda saqlash, amaldagi siyosat va xarajatlarni keskin korrektilovkalarsiz hamda kelgusi avlodlar zimmasiga ortiqcha qarz yukini o'tkazmasdan davom ettira olish qobiliyati sifatida talqin qiladi" [1].

IMF yondashuvida esa "fiskal barqarorlikni baholashda davlat qarzi, birlamchi budget balansi, iqtisodiy o'sish, foiz stavkalari va davlatning kelgusi daromad hamda xarajatlari o'rtasidagi munosabat muhim o'rin tutadi.



Fiskal siyosatning barqarorligi davlatning joriy siyosati kelgusida davlat qarzining boshqariladigan darajasini ta'minlash hamda iqtisodiy jihatdan maqbul fiskal choralarni amalga oshirish imkoniyatlari bilan bog'lanadi" [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Blanchard, Leandro va Zettelmeyer (2022) "Redesigning EU Fiscal Rules" tadqiqotida Yevropa Ittifoqining fiskal qoidalarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini asoslagan. Ularning fikricha, 3% budjet taqchilligi va 60% davlat qarzi chegaralarini zamonaviy iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiq. Tadqiqotchilar mamlakatlarning o'ziga xos iqtisodiy sharoitlarini hisobga oluvchi moslashuvchan fiskal qoidalar tizimini taklif etganlar [3].

Siluanov A.G. va Nazarov V.S. (2022) "**Налоговая политика в условиях геополитической нестабильности**" tadqiqotida geosiyosiy beqarorlik sharoitida soliq siyosatining o'ziga xos jihatlari tahlil qilganlar. Ular tashqi iqtisodiy omillar ta'siri sharoitida mamlakatlar ichki soliq bazasini mustahkamlash va soliq yig'ish samaradorligini oshirishga e'tibor qaratishi lozimligini ko'rsatganlar [4].

Gaspar, Medas va Perrelli (2019) "Global Debt Database" loyihasi doirasida davlat qarzi dinamikasi va fiskal barqarorlikni tahlil qilganlar. Ularning xulosalariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun davlat qarzining YaIMga nisbatan optimal darajasi 40–50% atrofida bo'lishi, rivojlangan mamlakatlar uchun esa bu ko'rsatkich 70–80% gacha bo'lishi mumkin [5].

Shuningdek, o'zbek olimlari – A.V. Vahobov [6], T.S. Malikov [7], A.S. Jo'rayev [8], B.I. Nurmuhamedova [9] va boshqalarning ilmiy ishlarida davlat budjeti daromadlarining shakllanishi, soliqlarning fiskal va tartibga soluvchi funksiyalari, soliq tushumlarining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda soliq tizimining samaradorligi budjet barqarorligining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, budjet barqarorligi ko'plab omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi [10]. Ushbu omillar orasida soliqlarning fiskal va tartibga soluvchi funksiyalari, soliq bazasining kengligi, shuningdek, boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida davlat budjeti daromadlarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratilgani muhim o'rin tutadi. Shu sababli budjet barqarorligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish va ularni tegishli mezonlar asosida klassifikatsiya qilish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda davlat budjeti barqarorligini baholashda tizimli, institutsional, qiyosiy va sabab-oqibat tahlili usullaridan foydalanildi. Davlat budjeti barqarorligi fiskal barqarorlikning nisbatan tor institutsional ko'rinishi sifatida qaralib, uning asosiy tarkibiy elementlari daromadlarning yetariligi va barqarorligi, xarajatlarning moliyaviy ta'minlanganligi, fiskal muvozanat, davlat qarzining boshqariladigan darajasi hamda iqtisodiy shoklarga moslashuvchanlik orqali belgilandi.

Budjet barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar fiskal, makroiqtisodiy, tarkibiy-iqtisodiy, institutsional va tashqi omillar guruhlariga ajratildi. Tadqiqotda asosiy e'tibor soliq bazasining budjet barqarorligiga ta'sirini aniqlashga qaratildi. Mazkur bog'liqlik "soliq bazasi → soliq tushumlari → budjet daromadlari → fiskal muvozanat" ketma-ketligi asosida tahlil qilindi.

Shuningdek, soliq bazasining ta'siri qamrov, diversifikatsiya va daromadlar o'zgaruvchanligini kamaytirish kanallari orqali baholandi. Tadqiqotda budjet barqarorligi qisqa muddatli natijalar bilan cheklanmasdan, o'rta va uzoq muddatlarda moliyaviy imkoniyatlarni saqlash qobiliyati sifatida talqin qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Institutsional yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "fiskal barqarorlik" va "davlat budjeti barqarorligi" tushunchalarini to'liq ma'noda tenglashtirish yoki aynan bir xil mazmunda talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Fiskal barqarorlik davlat moliyasining kengroq holatini, jumladan, davlat qarzi, budjet balansi, aktiv va majburiyatlar hamda uzoq muddatli fiskal siyosatni qamrab olsa, davlat budjeti barqarorligi budjet tizimining daromadlarni barqaror shakllantirish, xarajat majburiyatlarini moliyalashtirish hamda ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini nisbatan aniqroq ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, davlat budjeti barqarorligining iqtisodiy mazmunini uning uchta o'zaro bog'liq xususiyati asosida ochib berish maqsadga muvofiq:

birinchidan, budjet daromadlarining yetariligi va prognoz qilinadiganligi;

ikkinchidan, davlat zimmasidagi xarajat majburiyatlarining moliyaviy ta'minlanganligi;

uchinchidan, budjet tizimining ichki va tashqi iqtisodiy shoklarga moslasha olish qobiliyati.

Mazkur xususiyatlarning birortasini alohida holda mutlaqlashtirish budget barqarorligini to'liq baholash imkonini bermaydi. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda davlat budjeti barqarorligi fiskal barqarorlikning nisbatan tor institutsional ko'rinishi sifatida qabul qilinib, budget daromadlarining yetarli va prognoz qilinadigan shakllanishi, xarajat majburiyatlarining moliyaviy ta'minlanganligi, maqbul budget balansi va boshqariladigan qarz yukini o'rta hamda uzoq muddatda saqlash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Shu sababli davlat budjeti barqarorligi bir vaqtning o'zida daromadlar barqarorligi, xarajatlarning moliyaviy ta'minlanganligi, fiskal muvozanat, davlat qarzining boshqariladigan darajasi, iqtisodiy shoklarga moslashuvchanlik hamda o'rta va uzoq muddatli moliyaviy imkoniyatlarni saqlash kabi tarkibiy elementlarni qamrab oluvchi kompleks iqtisodiy holat sifatida qaralishi lozim.

Ushbu elementlarning o'zaro bog'liqligi 1-rasmda tizimlashtirilgan.



1-rasm. Davlat budjeti barqarorligining iqtisodiy mazmuni va tarkibiy elementlari¹

1-rasmda taklif etilgan yondashuv budget barqarorligini alohida ko'rsatkich emas, balki bir nechta o'zaro ta'sir etuvchi moliyaviy xususiyatlarning natijasi sifatida baholash imkonini beradi. Bunda daromadlar yetarliligi davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirish imkoniyatini belgilasa, xarajatlarning moliyaviy ta'minlanganligi ushbu resurslar hisobidan davlat funksiyalarining uzluksiz bajarilishini ifodalaydi. Fiskal muvozanat esa mazkur ikki yo'nalish o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, davlat qarzining barqarorligi budget tizimining o'rta va uzoq muddatdagi moliyaviy imkoniyatlariga bevosita ta'sir qiladi. Qarz majburiyatlari va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlarning ortishi budget resurslarini boshqa yo'nalishlarga taqsimlash imkoniyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli IMF va OECD amaliyotida qarz dinamikasi fiskal barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi.

Biroq budget barqarorligini faqat davlat qarzi bilan izohlash yetarli emas. Davlat qarzi past bo'lgan sharoitda ham budget daromadlarining o'zgaruvchanligi, xarajatlarning tarkibining samaradorligi va daromad manbalarining kengligi moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda budget barqarorligi daromadlarning yetarliligi va barqarorligi, xarajatlarning moliyaviy ta'minlanganligi, fiskal muvozanat, qarz yukining boshqariladigan darajasi hamda budget tizimining iqtisodiy shoklarga moslashish qobiliyati uyg'unligi asosida baholanadi.

Tadqiqotda daromadlar tomoni alohida ahamiyatga ega, chunki davlat budjeti daromadlarining barqarorligi ularni shakllantiruvchi iqtisodiy manbalarga bog'liq. Soliq bazasi qanchalik keng va iqtisodiyotning turli segmentlarini qamrab olgan bo'lsa, soliq tushumlarini shakllantirish salohiyati shunchalik yuqori bo'ladi. Biroq soliq bazasining mutlaq hajmi budget barqarorligining yagona mezonini emas.

Masalan, soliq tushumlarining katta qismi cheklangan sondagi soliq to'lovchilar, muayyan tarmoq yoki tashqi bozor kon'yunkturasiga yuqori darajada bog'liq bo'lsa, soliq bazasining nominal hajmi katta bo'lishiga qaramay, budget daromadlarining iqtisodiy shoklarga sezgirliги yuqori darajada saqlanib qolishi mumkin. Shuning uchun soliq bazasini kengaytirish masalasi uning diversifikatsiyasi, ya'ni soliq tushumlarining turli iqtisodiy manbalar o'rtasida taqsimlanishi bilan birgalikda ko'rib chiqilishi zarur. Demak, soliq bazasining kengligi fiskal imkoniyatni, uning diversifikatsiyalanganligi esa ushbu imkoniyatning barqarorlik darajasini belgilashga xizmat

1 Muallif ishlanmasi



qiladi.

Davlat budjeti barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni klassifikatsiyalash. Budget barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ular turli iqtisodiy kanallar orqali budget daromadlari, xarajatlari, balans va qarzi majburiyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularni oddiy sanab o'tish emas, balki ta'sir xususiyati va iqtisodiy mazmuniga ko'ra tizimlashtirish zarur.

IMF "fiskal risklarni budget yoki prognozda kutilgan natijalardan amaldagi fiskal ko'rsatkichlarning og'ishi ehtimoli sifatida qarab, makroiqtisodiy o'zgarishlar, daromadlar, xarajalar, aktivlar va majburiyatlarga ta'sir qiluvchi risklarni alohida o'rganish zarurligini ta'kidlaydi" [11]. Ushbu yondashuv budget barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni faqat budget tizimining ichki ko'rsatkichlari bilan cheklab qo'ymaslik zarurligini ko'rsatadi. Chunki soliq bazasi va budget daromadlari iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, bandlik, investitsion jarayonlar, iqtisodiyot tarkibi hamda tashqi iqtisodiy kon'yunktura bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq.

Shundan kelib chiqib, tadqiqot doirasida davlat budjeti barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni beshta asosiy guruhga – fiskal, makroiqtisodiy, tarkibiy-iqtisodiy, institutsional va tashqi omillarga ajratish taklif etiladi. Ushbu klassifikatsiyaning asosiy xususiyati omillarning nomiga emas, balki budget barqarorligiga ta'sir qilish mexanizmiga tayanishidir. Metodologik jihatdan budget barqarorligiga ta'sir etuvchi determinantlarni uning natijaviy fiskal ko'rsatkichlaridan farqlash zarur. Shu sababli mazkur tadqiqotda makroiqtisodiy, tarkibiy, institutsional va tashqi shart-sharoitlar determinantlar, soliq tushumlari va daromadlar diversifikatsiyasi transformatsiya kanallari, budget balans hamda davlat qarzi ko'rsatkichlari esa budget barqarorligining natijaviy indikatorlari sifatida qaratiladi.

Fiskal omillar. Fiskal omillar davlat budgetining daromadlari va xarajatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Fiskal blok doirasida soliq bazasi va soliq tushumlari budget daromadlarini shakllantiruvchi boshlang'ich va oraliq ko'rsatkichlar, budget xarajatlari fiskal majburiyatlarni ifodalovchi ko'rsatkich, budget taqchilligi va davlat qarzi esa mazkur jarayonning natijaviy moliyaviy holatini tavsiflovchi indikatorlar sifatida qaratiladi [12]. Tadqiqot nuqtai nazaridan mazkur guruhda soliq bazasi boshlang'ich iqtisodiy omil sifatida qaratiladi. Chunki soliq stavkalari va boshqa soliq parametrlari o'zgarmagan sharoitda ham soliqqa tortiladigan iqtisodiy qiymatning o'sishi yoki qisqarishi budget daromadlari imkoniyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Biroq soliq bazasining kengayishi budget barqarorligiga avtomatik ravishda olib kelmaydi. Uning natijasi soliq majburiyatlarining qay darajada shakllanishi va amalda budgetga tushishi bilan belgilanadi. Fiskal omillarning yana bir muhim xususiyati ular o'rtasida sabab-oqibat zanjirining mavjudligidir. Soliq daromadlari xarajat majburiyatlariga nisbatan yetarli bo'lmagan hollarda budget taqchilligi yuzaga keladi. Taqchillikning barqaror moliyalashtirish manbalari mavjud bo'lmagan sharoitda qarzga bo'lgan ehtiyoj ortishi mumkin. Qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarning oshishi esa kelgusi davrlarda budget xarajatlari tarkibiga qo'shimcha ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, fiskal omillarni quyidagi o'zaro bog'liq zanjir sifatida baholash maqsadga muvofiq:

soliq bazasi → soliq tushumlari → budget daromadlari → budget balans → davlat qarzi.

Biroq ushbu ketma-ketlik qat'iy deterministik bog'liqlikni anglatmaydi, balki boshqa shartlar o'zgarmagan holda soliq bazasidagi o'zgarishlarning fiskal natijalarga uzatilishining nazariy kanalini ifodalaydi. Amalda budget balans va davlat qarzi dinamikasiga xarajalar siyosati, iqtisodiy o'sish, foiz stavkalari, valyuta kursi va boshqa makroiqtisodiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

Makroiqtisodiy omillar. Budget barqarorligi milliy iqtisodiyotda shakllanayotgan umumiy makroiqtisodiy sharoitdan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi. Iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, bandlik, aholi daromadlari va investitsion faollik soliqqa tortiladigan iqtisodiy qiymatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish sharoitida ishlab chiqarish, xizmatlar, aholi daromadlari, iste'mol va korxonalarning moliyaviy natijalari kengayishi soliq bazasining tabiiy o'sishi uchun sharoit yaratadi. Iqtisodiy faollik pasaygan sharoitda esa mazkur jarayonning teskari yo'nalishi kuzatilishi mumkin. Shu sababli soliq tushumlarining o'sishini faqat soliq ma'muriyatchiligining natijasi sifatida baholash to'liq yondashuv hisoblanmaydi; uning bir qismi iqtisodiy faollik dinamikasi bilan belgilanadi.

Inflyatsiya ta'siri yanada murakkab. Narxlar darajasining o'sishi ayrim soliq bazalari va nominal soliq tushumlarini ko'paytirishi mumkin, biroq shu bilan bir vaqtda davlat xaridlari, ijtimoiy xarajalar va boshqa budget majburiyatlarining nominal qiymatini ham oshiradi. Shu sababli budget barqarorligini faqat nominal daromadlar o'sishi bilan baholash kompleks iqtisodiy tahlilni talab etadi.

Tarkibiy-iqtisodiy omillar. Tarkibiy-iqtisodiy omillar iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha tuzilishi, diversifikatsiya darajasi va budget daromadlari manbalarining konsentratsiyasini ifodalaydi. Agar soliq bazasi bir yoki bir nechta yirik tarmoq, tovar, resurs yoki soliq to'lovchilar guruhida yuqori darajada jamlangan bo'lsa, mazkur segmentdagi iqtisodiy o'zgarishlar budget daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksincha, iqtisodiyot tarkibining diversifikatsiyalanishi soliq bazasining turli manbalar hisobiga shakllanishi uchun shart-sharoit yaratadi. Shuning uchun mazkur tadqiqotda soliq bazasi hajmi bilan bir qatorda, soliq bazasi konsentratsiyasi va soliq tushumlari diversifikatsiyasi ham budget barqarorligini baholashda muhim iqtisodiy

xususiyat sifatida qabul qilinadi.

Institutsional omillar. Iqtisodiyotda soliqqa tortilishi mumkin bo'lgan qiymatning mavjudligi uning avtomatik ravishda davlat budjeti daromadiga aylanishini anglatmaydi. Buning uchun samarali soliq ma'muriyatchiligi, ishonchli hisob tizimi, budjetni real prognozlash va moliyaviy nazorat mexanizmlari mavjud bo'lishi zarur. Shu jihatdan, institutsional omillar mavjud iqtisodiy salohiyatni real fiskal resursga transformatsiya qilish qobiliyatini belgilaydi.

Soliq bazasi mavjud bo'lishi mumkin, ammo uning to'liq hisobga olinishi, soliq majburiyatining to'g'ri aniqlanishi va undirish tizimining samarali ishlashi potensial baza bilan real budjet tushumi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlaydi. Budjet rejalashtirish sifati ham mazkur guruhning muhim elementidir. Chunki daromadlarni asosli prognoz qilish, iqtisodiy risklarni yetarli darajada hisobga olish va xarajat majburiyatlarini real daromad imkoniyatlariga moslashtirish budjet ijrosi jarayonida moliyaviy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tashqi omillar. Tashqi iqtisodiy kon'yunktura, jahon bozorlaridagi o'zgarishlar, tashqi savdo sharoitlari va global moliyaviy shoklar ham budjet barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillarning xususiyati shundaki, ularning aksariyati milliy fiskal siyosatning to'g'ridan-to'g'ri nazoratidan tashqarida shakllanadi. Tashqi shoklar eksport tushumlari, korxonalar daromadlari, investitsiyalar, valyuta bozori va iqtisodiy o'sish orqali soliq bazasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli budjet barqarorligi tashqi shoklarning mavjud emasligini emas, balki budjet tizimining bunday o'zgarishlarni ma'lum darajada yumshatish va ularga moslashish qobiliyatini ham anglatadi. Mazkur omillar tizimi 2-rasmda mualliflik klassifikatsiyasi shaklida umumlashtirildi.



2-rasm. Davlat budjeti barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar klassifikatsiyasi²

Taklif etilgan klassifikatsiyada fiskal omillar natijaviy moliyaviy holatga nisbatan eng yaqin, makroiqtisodiy, tarkibiy-iqtisodiy va tashqi omillar esa budjet ko'rsatkichlariga iqtisodiy muhit orqali ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida qaraladi. Institutsional omillar esa mazkur ikki daraja o'rtasidagi transformatsiya samaradorligini belgilaydi.

Omillarni ularning ta'sir xususiyati bo'yicha bevosita va bilvosita guruhlariga ham ajratish mumkin. Soliq tushumlari, budjet xarajatlari, taqchillik va qarz ko'rsatkichlari budjet holatiga bevosita moliyaviy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish, bandlik, investitsiyalar, iqtisodiyot tarkibi va tashqi kon'yunktura esa birinchi navbatda soliq bazasi, daromadlar yoki xarajat ehtiyojlariga ta'sir qilib, keyin budjet natijalarida aks etadi. Shuningdek, omillarning qisqa, o'rta va uzoq muddatli ta'siri bir xil emas. Masalan, makroiqtisodiy shoklar budjet daromadlariga nisbatan tez ta'sir ko'rsatishi mumkin. Iqtisodiyot diversifikatsiyasi, institutsional boshqaruv sifati yoki soliq bazasining tarkibiy kengayishi esa ko'proq o'rta va uzoq muddatda o'z samarasini namoyon qiladi. Shu sababli budjet barqarorligini faqat bir yillik budjet ijrosi ko'rsatkichlari asosida baholash uning uzoq



muddatli xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi.

Tadqiqot predmeti nuqtai nazaridan yuqoridagi omillar klassifikatsiyasining markaziy masalasi – soliq bazasi qanday mexanizm orqali budjet barqarorligiga ta'sir ko'rsatishini aniqlashdir. Mazkur bog'liqlikni eng sodda ko'rinishda **soliq bazasi kengayishi** → **soliq tushumlari o'sishi** → **budjet barqarorligi** tarzida ifodalash mumkin. Biroq ushbu bog'liqlikni to'liq baholash uchun qo'shimcha omillarni ham hisobga olish zarur. Chunki soliq bazasining har qanday nominal kengayishi avtomatik ravishda barqaror budjet daromadiga aylanmaydi.

Bizning fikrimizcha, soliq bazasini kengaytirishning budjet barqarorligiga ta'siri kamida uchta oraliq kanal orqali yuzaga chiqadi.

Birinchisi – qamrov kanali. Soliqqa tortiladigan iqtisodiy faoliyatning kengayishi soliq majburiyati shakllanishi mumkin bo'lgan iqtisodiy resurslar doirasini oshiradi. Bu yerda baza kengayishi stavka oshishi hisobiga emas, balki iqtisodiy faoliyat va soliq obyektlarining to'laroq qamrab olinishi orqali yuzaga kelishi prinsipial ahamiyatga ega.

Ikkinchisi – diversifikatsiya kanali. Yangi va turli iqtisodiy manbalarining soliq bazasiga kiritilishi budjet daromadlarining cheklangan soliq turlari yoki soliq to'lovchilarga bog'liqligini kamaytirish imkonini beradi. Natijada ayrim segmentlardagi iqtisodiy o'zgarishlarning umumiy budjet daromadlariga ta'siri nisbatan yumshaydi.

Uchinchisi – daromadlar o'zgaruvchanligini pasaytirish kanali. Soliq tushumlari manbalarining kengayishi va diversifikatsiyasi, boshqa shartlar o'zgarmagan holda, budjet daromadlarining keskin tebranishlarini yumshatish, o'rta muddatli prognozlarning ishonchlilikini oshirish va budjet xarajatlarini barqaror rejalashtirish imkonini kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, davlat budjeti barqarorligi daromadlarning yetariligi, xarajatlarning moliyaviy ta'minlanganligi, fiskal muvozanat, davlat qarzining boshqariladigan darajasi hamda iqtisodiy shoklarga moslashuvchanlik bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, soliq bazasining kengayishi va diversifikatsiyasi budjet daromadlari barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli soliq bazasini kengaytirish, soliq tushumlarini turli manbalar hisobidan diversifikatsiya qilish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish hamda budjet daromadlarini aniq prognozlash taklif etiladi. Shuningdek, budjet xarajatlari samaradorligini oshirish, davlat qarzi yukini nazorat qilish hamda budjet barqarorligini baholashda daromadlar, xarajatlari, qarz va iqtisodiy shoklarga moslashuvchanlik ko'rsatkichlarini kompleks ravishda hisobga olish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. *Fiscal Sustainability of Health Systems: How to Finance More Resilient Health Systems When Money Is Tight?* – Paris: OECD Publishing, 2024. – 207 p. – DOI: 10.1787/880f3195-en.
2. Yamauchi A. *Fiscal Sustainability: The Case of Eritrea*. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2004. – IMF Working Paper. – No. 2004/007. – 29 p. – DOI: 10.5089/9781451842449.001.
3. Blanchard O., Leandro A., Zettelmeyer J. *Redesigning EU Fiscal Rules: From Rules to Standards*. – Washington, D.C.: Peterson Institute for International Economics, 2022. – Working Paper No. 22-1. – P. 1–45.
4. Силуанов А. Г., Назаров В. С. *Налоговая политика в условиях геополитической нестабильности: вызовы и решения // Налоги и налогообложение. – 2022. – № 4. – С. 12–27.*
5. Gaspar V., Medas P., Perrelli R. *Global Debt Database: Methodology and Sources*. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2019. – IMF Working Paper WP/19/256. – P. 1–31.
6. Vahobov A. V., Malikov T. S. *Moliya: darslik*. – Toshkent: Noshir, 2012. – 712 b.
7. Malikov T. S. *Budjet-soliq siyosati: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 376 b.
8. Jo'rayev A. S., Berdiyeva U. A. *Soliq ma'murchiligi: OTM uchun o'quv qo'llanma*. – Toshkent: TMI, 2019. – 373 b.
9. Nurmuhamedova B. I., Xamdorov Sh. K. *Davlat moliyasi: darslik*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 428 b.
10. Musgrave R. A., Musgrave P. B. *Public Finance in Theory and Practice*. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill Book Company, 1989. – 627 p.
11. International Monetary Fund. *Fiscal Risks – Sources, Disclosure, and Management*. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2008. – IMF Policy Paper. – 21 May.
12. Musgrave R. A., Musgrave P. B. *Public Finance in Theory and Practice*. – New York: McGraw-Hill, 1989.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100